

HINDIY TILIDAGI DIPLOMATIK TERMINLARNING ETIMOLOGIK TAHLILI

Maxfuza Mirzamurodova Furqat qizi

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti

1-kurs lingvistika mutaxassisligi magistranti

Tel: +998935466668

Nurmatov S.S.

Ilmiy rahbar: fil.f.n., dots.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10720408>

So'zlarning haqiqiy va birinchi asl ma'nolari va shakllari til tarixi, boshqa tillar va dialektlardagi shu so'z to'g'ri kelgan o'zakka ega bo'lgan so'zlar bilan qiyoslash orqali aniqlanadi. Tilning leksikasi tildagi barcha so'zlarni o'z ichiga oladi. Tilda mavjud barcha so'zlar uning lug'at tarkibini tashkil etadi. Tilda bor bo'lgan so'zlarning hisobi aniq emas. Har bir til o'zining lug'at sostaviga ega bo'lib, yuz minglab so'zlarni o'z ichiga olgan. Eng mukammal tuzilgan lug'at ham barcha so'zlarni qamrab ololmaydi. Chunki, tilning asta-sekin rivojlanish jarayonida uning lug'at sostavi ham takomillashib boradi. Barcha yangi so'zlar yoki eski so'zlar lug'atdan o'rin olmagan bo'lishi mumkin.

So'zlarning kelib chiqishini, ya'ni etimologiyasini o'rganish quyidagilarda ahamiyatli:

1. So'zlarning lug'aviy ma'no ko'lamini yoritishda;
2. So'z o'zagini aniqlashda;
3. Tilning tarixiy taraqqiyoti davomidagi o'zgarishlarini tahlil qilishda.

Hindiy tili lug'at tarkibi kelib chiqishi jihatdan ikkita katta guruhga bo'linadi:

1. Meros sifatida olingan so'zlar;
2. Chet tildan kirib kelgan o'zlashma so'zlar.

Meros sifatida olingan so'zlar, o'z navbatida, yana ikki guruhga bo'linadi:

1. Hind-oriy;
2. Substial, ya'ni tag qatlamli so'zlar.

Hindiy-oriy so'zlari qadimgi hinduizm obidalarida qayd etilgan so'z va morfemalar bilan taqqoslangan holda topilgan so'zlar va morfemalardir. Substial yoki tag qatlamli so'zlar esa Sanskrit tiliga xos bo'lmagan so'zlar bo'lib, ularni an'anaviy tarzda **देशी**, ya'ni mahalliy so'zlar deb atashadi. Hindiy tili adabiy shakliga mansub hind tub so'zlari tarixiy jihatdan quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Tadbhava – (**तद्भावा**). Bu turdagi so'zlar uzoq davom etgan tarixiy jarayonda prakrit (**प्रकृत**) va apabhransha (**अपभ्रंश**) bosqichlaridan o'tib kelingan va tovush o'zgarishlariga duch kelgan so'zlar bo'lib, ular hindiy tili so'z boyligining asosiy qismini tashkil etadi. Hind-oriy tillari so'z boyligining asosiy qismini tashkil etadi. Hind-oriy tillari sanskritdan kelib chiqqan deb tan olinishiga ko'ra, tadbhava "undan kelib chiqqan" degan ma'noni anglatadi. Hindiy tilida diplomatik terminlar orasida ushbu guruhga mansub so'zlardan quyidagilarni misol qilishimiz mumkin:

समनुमोदन m-r – agreman, rozilik

अग्रे विचाय m-r – ad- referendum

सहमिलन m-r – yuqori martaba yoki lavozimni egallash

कार्यदूत m-r – muvaqqat ishonchli vakil

मतैक्स m-r – kelishuv, bitim.

2. Tatsama – (**तत्समा**). Sanskrit tilidan bevosita adabiy yo'l orqali o'zlashtirilgan va tub so'z sifatida qadimgi imloviy shaklini saqlab qolgan so'zlar bu guruhga kiradi. Bunday so'zlardan foydalanish so'z yasalishi ehtiyojlari o'sgan sari turli hind-oriy tillarida har xil miqdorda kuzatiladi. Ularning ba'zilarida esa bunday so'zlar keng ko'lamda ishlatiladi. Shu jarayonda tatsama ya'ni "huddi o'sha sanskritdagidek" so'zlari ko'p hollarda sanskrit tili fonetik va ba'zan grammatik qoidalariga bo'ysunadilar. Masalan, hindiy tilida sifatlarning qiyosiy va orttirma darajalarida u yaqqol ko'zga tashlanadi. Hindiy tili diplomatik terminlari orasida bu guruhga mansub ko'plab so'zlar mavjud ekaniga guvoh bo'ldik. Masalan:

संलेख (S) muzakkar- protokol, dalolatnoma

उपराजदूत (S) m-r muvaqqat ishlar vakili

आसंगी (S) m-r attashe,

परिचय-पत्र (S) m-r ishonch yorlig'i

प्रत्यायन (S) m-r akkreditatsiya

राज-प्रतिनिधि (S) m-r ishonchli vakil

अंतरावर्त (S) m-r anklav

प्रत्यय-पत्र (S) m-r ishonch yorlig'i

विरोध-पत्र (S) m-r norozilik notasi

अविप्रतिपत्ति संधि S m-s - rad etmaslik shartnomasi

टिप्पण S m-r – nota

आप्रवासी S m-r – immigrant

उत्प्रवासी S m-r- emigrant

अधिसूचना S m-r - notifikatsiya

ग्राह्य-व्यक्ति (S) m-r persona grata, maqbul shaxs.

Tatsama so'zlari yangi va eski so'zlarga bo'linadi.

Eski tatsama – bu sanskrit so'zlari bo'lib, yoki eski va yangi ma'nolarda bir vaqtda ishlatiladi, yoki faqat eski, yo faqat yangi ma'nolarda ishlatiladigan so'zlardir.

टिप्पण S. m-r – Nota, eslatma

Yangi tatsama – bular sanskrit tili lug'ati va so'z yasovchi qo'shimchalari asosida yasalgan so'zlardir. Ular hindiy tilining asosiy lug'at tarkibini tashkil etadi. Masalan:

अधिनियम S m-r akt

अंतरावर्त m-r - anklav (bir davlatning hamma tomondan boshqa davlat hududi bilan o'rab olingan hududi yoki hududining bir qismi)

3. Ardxatatsama – (**अर्धतत्समा**) (ya'ni "yarim tatsama"). Bu so'z guruhi mazkur ikki guruhga nisbatan oraliq holatga ega bo'lib, bunga sanskritdan chiqib, yangi hind-oriy tillar ta'siri ostida fonetik va imloviy jihatdan o'zgarib kelgan eski adabiy o'zlashmalardan iboratdir. Bu guruhga mansub tibbiyot atamaları uchramadi.

4. Deshya – (**देश्य**). (ya'ni "mahalliy", "yerli"). Bular asosan sanskrit bilan taqqoslanganda bu til tizimiga yot bo'lib, ba'zilar dravid va munda sarchashmalaridan, qolganlari esa kelib chiqishi noma'lum bo'lgan so'zlardir. Miqdoran deshyalar ya'ni mahalliy so'zlar lug'atda benihoya kamchilikni tashkil etadi.

विदेशी so'zlar bular chet tillaridan o'zlashgan so'zlardir. Yuqorida aytilganidek, hindiy tili lug'ati chet tillardan kirib kelgan so'zlar vositasida ham boyib kelgan. Bunga tibbiyot atamalari orasida ham ko'plab misollar uchradi. Buni biz Hindistonda turli xil davrlar mobaynida turli din, madaniyat va tillar hukmron bo'lib kelgani bilan izohlashimiz mumkin.

राजनयिक मिशन m-r – diplomatik missiya

राजनयिक वीजा m-r – diplomatik viza

राजनयिक मेल m-r- diplomatik pochta

Arab-fors o'zlashmalari. Bu so'zlar milodiy davrning ikkinchi ming yillik dastlabki asrlarida boshlangan Markaziy Osiyo, Afg'oniston va Eron bilan, shuningdek, VII-VIII asrlarda uzviy ravishda Sind viloyatining arab istilosi va islom ta'siri natijasida yuz bergan tarixiy aloqalar davomida o'zlashtirilgan birliklardan tarkib topgan. Bularning miqdori, ayniqsa, urdu, sindhiy, siraykiy kabi tillarda sezilarli darajada bo'lib, ba'zan ular lug'atning 70-80- %gacha qismini egallaydi. Biroq diplomatik terminlar orasida arab-fors o'zlashmalari uchramadi.

Ovrupo o'zlashmalari. Bu guruh tarkibiy jihatdan turli tillar so'zlaridan, xususan, Portugal, Holland, ingliz tillaridan turli miqdorda o'zlashtirilgan so'zlardan tashkil topib, XIX asrdan boshlab ingliz tilining o'sib kelayotgan ta'siri samarasidir. O'sha paytda rivoj topgan ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlar bilan barcha hozirgi hayotdagi sanoat va texnika taraqqiyoti yuksalishi va ingliz tilining ushbu mintaqada baynalminal tilga aylanib borganligi uchun ularning o'zlashtirilishi kuchayib bormoqda. Ingliz tili mintaqa tillariga xalqaro ijtimoiy-siyosiy va ilmiy-texnikaviy terminologiyaning kirib kelishida asosiy vosita vazifasini ham o'tab keldi. Hindiy tilidagi tibbiyotga oid atamalar orasida ingliz o'zlashmalarai, ayniqsa, ko'p uchraydi. Ularning hozirgi zamon hind tibbiyotida keng qo'llanilishiga guvoh bo'lamiz. Masalan:

नोट (E. Note) muzakkar – diplomatik nota

मेमोरेण्डम (E) muzakkar- memorandum

प्रोटोकल (E) muzakkar- protokol

Yuqoridagi tahlil natijalariga ko'ra, hindiy tilidagi diplomatik atamalar orasida birinchi o'rinda sanskrit tiliga oid atamalar eng ko'p miqdorda uchrashi kuzatildi. Ularning soni jami 73 ta bo'lib, hindiy tiliga xos diplomatik atamalarning 67 %ini tashkil etdi. Tatbhava so'zlari esa 26 ta terminni o'z ichiga oldi va mavjud diplomatik terminlarning 23,85%ga to'g'ri keldi.

V.M.Beskrovniyning "Hindcha-ruscha lug'at"ini tahlil qiladigan bo'lsak, ingliz tilidagi so'zlar Hindistondagi har bir sohaga o'zlasha borganining guvohi bo'lamiz. Hindiy tili diplomatik terminlari orasida ham ingliz o'zlashmalari bo'lib, ular son jihatdan tatbhava guruhiga oid diplomatik atamalardan so'ng uchinchi o'rinni egalladi. Ular jami 9 ta bo'lib, to'plangan misollarning 8.2 %ini tashkil etdi.

References:

1. Бескровный Б.М. Хинди-русский словарь под ред. В.М. Бескровного. -М., 1972.
2. Дымшиц З.М., О.Г. Ульциферов, В. И. Горюнов. Учебник языка хинди. Часть II, - Москва 1980.
3. Дымшиц З.М. и др. Учебник языка хинди III. қисм. -М. 1983.
4. Дымшиц З.М. и др. Грамматика языка хинди. -Москва 1986.
5. चतुर्भुज सहाय, अरुण चतुर्वेदी, व्यावहारिक हिंदी व्याकरण और वार्तालाप,म. -आगरा

6. वासुदेवनन्दन प्रसाद आधुनिक हिन्दी व्याकरण और रचना-पटना: 2000.
7. चतुर्भुज सहाय हिंदी पदविज्ञान. -आगरा : 2007.

